



Gulchexra SAYDALIYEVA,
Namangan davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti
E-mail: saydalieva1983@gmail.com

PhD D.Sarimsakova taqrizi asosida

BADIIY DISKURSDA ALLEGORIYANING METAFORIK IFODALANISHI VA UNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada badiiy diskursda allegoriya va metaforaning o‘zaro munosabati hamda ularning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot ob’ekti sifatida o‘zbek adabiyoti namunalari, xususan O‘tkan kunlar va Kecha va kunduz asarlaridan olingan badiiy parchalar tanlangan. Maqolada funksional uslub nazariyasi, troplar tizimi, xususan metafora va allegoriyaning semantik tabiati ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, ochiq va yopiq metafora tushunchalari doirasida allegoriyaning yaxlit semantik tizim sifatida shakllanishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy diskurs, allegoriya, metafora, funksional uslub, lingvomadaniyat, ramz, ochiq va yopiq metafora.

МЕТАФОРИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ АЛЛЕГОРИИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ И ЕЁ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируются взаимосвязь аллегории и метафоры в художественном дискурсе, а также их лингвокультурологические особенности. В качестве объекта исследования выбраны образцы узбекской литературы, в частности романы “Минувшие дни” (O‘tkan kunlar) и “Ночь и день” (Kecha va kunduz). В статье на основе научных источников освещаются теория функционального стиля, система тропов, а также семантическая природа метафоры и аллегории. Кроме того, в рамках понятий открытой и закрытой метафоры обосновывается формирование аллегории как целостной семантической системы.

Ключевые слова: художественный дискурс, аллегория, метафора, функциональный стиль, лингвокультура, символ, открытая и закрытая метафора.

METAPHORICAL EXPRESSION OF ALLEGORY IN LITERARY DISCOURSE AND ITS LINGUOCULTURAL FEATURES

Annotation

This article analyzes the interrelation between allegory and metaphor in literary discourse and examines their linguocultural features. The object of the study includes samples of Uzbek literature, particularly the novels “Bygone days” (O‘tkan kunlar) and “Night and day” (Kecha va kunduz). The paper discusses the theory of functional styles, the system of tropes, and specifically the semantic nature of metaphor and allegory based on scholarly sources. Furthermore, within the framework of open and closed metaphors, the formation of allegory as an integral semantic system is substantiated.

Keywords: literary discourse, allegory, metaphor, functional style, linguoculture, symbol, open and closed metaphor.

Kirish. Usul – tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog‘liq vazifasiga ko‘ra ajralishi bo‘lib, u aloqa jarayonida til vositalarining tanlanishi va qo‘llanishidagi farqlar orqali namoyon bo‘ladi. Umumxalq tili doirasida shunday farqlanishlar nutqning turli ko‘rinishlarini vujudga keltiradi. Shuning uchun ham ular vazifaviy (funktional) uslublar deb ataladi. Vazifaviy uslub tilning alohida tizimi emas, balki adabiy til tarkibidagi, o‘z vazifasi va qo‘llanish doirasi bilan farqlanuvchi yordamchi tizim hisoblanadi[1]. Badiiy adabiyot tili – adabiy tilning eng yuksak shakli va estetik imkoniyatlarini namoyon etuvchi tizim sifatida talqin etiladi. U o‘zining estetik funksiyasi bilan boshqa funksional uslublardan ajralib turadi, ya‘ni badiiy nutqning asosiy vazifasi - o‘quvchi yoki tinglovchida hissiy va obrazli ta‘sir orqali go‘zallik tuyg‘usini uyg‘otishdan iborat. Ilmiy yoki rasmiy nutq axborot yetkazish yoki mantiqiy fikrlashga xizmat qilsa, badiiy nutq histuyg‘ular orqali ma‘naviy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois, badiiy asarda so‘z nafaqat o‘zining umumadabiy ma‘nosini, balki asarning badiiy olami va ma‘naviy mazmuniga bog‘liq qo‘shimcha ma‘noni ham anglatadi. Bu holat natijasida so‘zlar chuqur ma‘nolik va ko‘pqirrali bo‘lib, ularning estetik qiymati ortib boradi. Badiiy tilning shunday xususiyati uni nafaqat ifodaviylik, balki ma‘no va shakl uyg‘unligidagi komillikni ta‘minlovchi vositaga aylantiradi.

Badiiy uslub esa tilning kommunikativ va estetik vazifalarini uyg‘unlashtirgan holda, obrazlilik, metaforik ma‘nolar va tasviriy vositalarning keng qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Shu

jihatdan allegoriya ham aynan badiiy uslubning muhim tasviriy vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi[2].

Badiiy til- bu real voqelikni ifodalash vositasi emas, balki uni badiiy qayta ishlash, estetik jihatdan qayta yaratish jarayonidir. Shu bois u lug‘aviy jihatdan eng boy va erkin tizim sifatida namoyon bo‘ladi[3].

Ilmiy yoki rasmiy uslublarda so‘z tanlash va ifoda cheklangan bo‘lsa, badiiy uslubda har qanday til qatlamiga oid so‘zlar -terminlar, suhbat uslubiga xos iboralar, publitsistik elementlar va hatto dialekt so‘zlar ham estetik vazifaga mos holda ishlatilishi mumkin. Yuqorida keltirilgan fikrlarning isboti sifatida A. Cho‘lponningi “Kecha va kunduz” asaridan bir parcha keltiramiz.

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi. Tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklari qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loykalanib oqqan suvlarning g‘amli yuzlari kuldi, o‘zlari horg‘in-horg‘in oqsalar-da, bo‘shalgan qul singari erkinlik nash‘asini kemira kemira ilgari bosadilar. Simyog‘ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko‘rina boshladi. Birinchi ko‘ringan ko‘klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash‘asini beradi. Bultur ekilib, ko‘p qoshlarini qoraytirgan o‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqazdi. Muloyim qo‘llarda ivib, suvga aylangandan keyin go‘zal ko‘zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko‘rar ekan bu

ko'kat! Erkaklarning gullik duppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol pogtuklari bilan hazillashib o'ynagan salkin shabada kuklam nash'asi bilan sho'xlik qiladi. Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi baxorda[4].

Bahor faslining boshlanishi badiiy va poetik ifoda vositalari orqali tasvirlangan ushbu parchada, muallif tabiat manzarasi orqali hayotning go'zalligi va yangilanish g'oyasini ilgari suradi. Matnda jonlantirish (personification) usuli keng qo'llanilgan masalan: "muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi", "tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqda" kabi iboralar tabiatni inson hissiyotlari bilan uyg'unlashtirib, uni tirik mavjudot sifatida ko'rsatadi. Bu orqali yozuvchi tabiatning tiklanish jarayonini insonning ichki kayfiyati bilan bog'laydi. Shuningdek, bahorning nafaqat tabiatda, balki inson qalbida ham yangilanish, zavq va umid hissini uyg'otishi g'oyasi asosiy mazmunni tashkil etadi. Muallifning tili metaforalarga, ta'rifiy ifoda va estetik detallarga boy bo'lib, ular orqali tabiatning nafosati, bahorning hayotbaxsh kuchi va uning inson ruhiga ijobiy ta'siri mahorat bilan namoyon etilgan. Shu tariqa, asarda bahor nafaqat fasl, balki hayotning go'zalligi, yangilanish va muhabbat ramzi sifatida badiiy talqin etilgan. Tabiatning uyg'onishi xamda asardagi asosiy qaxramon Zebi uchun xam yangi xayot bosqichi boshlanishi turli troplar va xilma xil uslubiy figuralar orqali namoyon buladi.

Demak, troplar va stilistik figuralar badiiy nutqning asosiy ifodaviy mexanizmlari sifatida nafaqat estetik ta'sirni kuchaytiradi, balki asarning g'oyaviy mazmunini ham chuqurlashtiradi. Bu orqali yozuvchi so'z san'ati xazinasini boyitib, uning orqali milliy tilning beqiyos ifodaviy imkoniyatlarini namoyon etadi[5].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ba'zi yozuvchilar maxorat bilan juda keng tarqalgan troplardan biri allegoriyani-abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali ramziy tarzda ifodalanihil[6] asarlarida qo'llashadi. Masalan: Allegoriya turli nutq turlarida – kundalik-so'zlashuv, badiiy va diniy diskurslarda qo'llaniladi. Kundalik-so'zlashuv diskursda u ko'pincha xalq maqollari tarzida ifodalanadi, chunki maqollar orqali hayotiy hikmatlar ma'no ichida ma'no tarzda bayon etiladi. Badiiy va diniy diskurslarda esa allegoriya asosan masal va qissa janrlarida namoyon bo'lib, umumiy g'oyani yashirin ma'no va obrazli yo'l bilan yetkazish vazifasini bajaradi.

Rus tilshunosi A.A.Potebnya ta'kidlaganidek, allegoriya keng ma'noda obraz va ma'no o'rtasidagi farqni ifoda etadi; shu tariqa u poeziyaning umumiy xususiyati sifatida namoyon bo'lib, universal troplardan biri sifatida baholanishi mumkin. Sitseronning ta'rifida esa allegoriya tor ma'noda bir nechta metaforalarning uyg'unligi sifatida izohlanadi. Bu yerda allegoriyaning metaforadan farqi yaqqol ko'rinadi: agar metafora ayrim holatlarda qisman ma'no ko'chishini ta'minlasa, allegoriya butunlay ramziy ifodaga ega bo'lib, ma'noni metaforik tarzda kodlaydi.

Shu bilan birga, murakkab (slojnaya) (alohida so'z yoki jumladagi metafora) bir so'z ichida ifodalanadigan va yaxlit (polnaya) (aniq va yagona metaforik ma'noni o'z ichiga olgan ifoda) ajratib ko'rsatilgan metafora tushunchalari orqali allegoriyaning semantik mohiyati aniqlanadi. Qisman metafora allegoriya deb atalmaydi, zero u obrazga qo'shimcha ma'no qo'shadi, ammo butunlay ramziy ma'no kasb etmaydi. Yaxlit metafora esa allegoriyaning asosiy mezonini bo'lib, u badiiy obrazning to'liq ramziy ma'noga ega ekanligini ko'rsatadi[7].

V.P.Moskvin allegoriyani muayyan axloqiy haqiqatni tushuntirish uslubi sifatida qo'llaniladigan kengaytirilgan, ochik (nezamknutaya) metafora sifatida ta'riflaydi[8]. Shu ta'rifga yanada oydinlik kiritish maqsadida ochiq (nezamknutaya) va yopiq (zamknutaya) metaforani tahlil qilishni o'rinli deb xisoblaymiz.

Metafora tilshunoslik va adabiyotshunoslikda eng keng o'rganilgan troplardan biri sifatida uning universalligini namoyon

Oramizda bu qo'rqunch holatka bahaqqi tushunadir'an yaxshi odamlar yo'q, bil'aks buzg'uchi va nizo'chi unsurlar tomir yoyib, har zamon sodda xalqni halokat chuquriga qarab tortadilar. Bu kungi qora chopon va qipchoq nizo'larini sizga bir timsol o'rinda ko'rsatayin: o'ylab ko'rilsin, bu nizo'lardan bizga qanchalik

etadi. Uning asosiy vazifasi - turli ma'noviy maydonlarga mansub narsa va hodisalarni o'zaro qiyoslash orqali yangi ma'no va obraz hosil qilish. «Adabiy ensiklopediya» hamda «Lingvistik atamalar lug'ati» da keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, metafora nutqning nafaqat tropi sifatida, balki semantik ko'chishning mexanizmi sifatida ham qaraladi. Shu ma'noda, metafora orqali so'zning ma'noiy hajmi kengayadi, uning ekspressiv imkoniyatlari kuchayadi, obrazlilik hamda emotsional ta'sir darajasi ortib boradi.

V.P.Moskvin kontekstual klassifikatsiya asosida metaforani ikki turga ochiq (nezamknutaya) va yopiq (zamknutaya) ga ajratgan. Yopiq metaforada ma'noning chegaralanganligi va obraz bilan denotativ ma'noning "yakunlangan" holda uyg'unlashishi kuzatiladi. Bunday metaforalar ko'pincha frazeologizmlar, klisheeler va qotib qolgan ma'nolar tarkibida namoyon bo'lib, ularning interpretatsiya imkoniyatlari cheklangan bo'ladi.

Ochiq metafora esa aksincha, ma'noning chegarasizligi, ochiqligi va ko'pqirraliligi bilan tavsiflanadi. Unda obraz va ma'no o'rtasidagi munosabat yopilmaydi, balki keng talqin imkoniyati saqlanib qoladi. Shu sababli ochiq metafora she'riyat va badiiy nasrda ko'proq qo'llaniladi hamda o'quvchi yoki tinglovchida individual qabul va sub'ektiv izohlanish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Natijalar va muhokama. Demak, yopiq metafora ma'noning barqarorlashuvi va qotib qolishini ta'minlasa, ochiq metafora ma'noning kengayishi va interpretatsiya imkoniyatlarini ko'paytirishga xizmat qiladi [9].

Ilmiy manbalarda allegoriyaga misol sifatida asosan masallar keltirilsa, metaforaga misol sifatida she'riy to'rtliklar ko'rsatiladi. Aksar hollarda bu ikki trop bir-biriga uyg'unlashib ketadi: ifodada muayyan xususiyat va belgilarning ko'chirilishi orqali yuzaga kelgan obraz namoyon bo'ladi. Shu bois ulardan qaysisini alohida ajratib ko'rsatish qiyin kechadi. Allegoriya bilan metafora o'rtasidagi chegarani aniq belgilash uchun «metafora» tushunchasining mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq ilmiy tavsiflash talab etiladi.

Metafora va allegoriya badiiy tafakkurning eng qadimiy va ta'sirchan ifodalariandir. Ular orqali yozuvchi yoki shoir voqelikni bevosita emas, balki bilvosita tarzda - ko'chma ma'nolarda aks ettiradi. Shuning uchun ham bu ikki ifoda usulini farqlash va ularning semantik tabiatiga oydinlik kiritish muhim hisoblanadi.

Metafora o'z mohiyatiga ko'ra yangilik va kutilmaganlik bilan ajralib turadi. U voqelikning ikki uzviy bog'liq bo'lmagan sohasini birlashtirib, yangi ma'no yaratadi. Biroq vaqt o'tishi bilan ayrim metaforalar "eskiradi", ya'ni ularning ko'chma ma'nosi asosiy leksik ma'noga aylanib ketadi. Masalan, "yurakdan sevmoq" iborasi ilk ishlatilgan davrda so'zma-so'z ma'noga ega bo'lgan bo'lishi mumkin, ammo hozirda u faqat emotsional kuchaytiruvchi ibora sifatida qabul qilinadi.

Shunday "eskirgan" metaforalardan farqli ravishda, allegoriya muayyan shartli, ramziy munosabatga asoslanadi. Unda voqelik to'g'ridan-to'g'ri emas, balki boshqa bir obraz orqali ifoda etiladi. Masalan, o'zbek adabiyotida bulbul - oshiq, gul -mahbuba, bog' - jannat, cho'l -judolik ramzidir. Bu ramzlar to'g'ridan-to'g'ri ma'noni emas, balki muayyan g'oya yoki hissiyotni bildiradi.

Mifologik va diniy manbalarda ham allegoriya keng qo'llanilgan. Masalan, yunon mifologiyasida Amur - muhabbat, Femida -adolat ramzi bo'lgan. O'zbek adabiy an'alarida Nav nihol - umid, Navo - ilohiy ilhom, Bahor -yangilanish va tirilish timsolidir. Ingliz tilida qizil atirgul - muhabbat ramzini, qora qarg'a -o'limni, oq rang poklik va musaffolikni ifodalaydi.

Allegoriya tizimiga yaqin bo'lgan bir shakl - bu kengaytirilgan metaforadir. Unda so'zlar o'zining asliy ma'nosida ishlatiladi, ammo butun kontekst ularga qo'shimcha ko'chma ma'no bag'ishlaydi. Masalan:

-Qipchoqlar o'zbeklarni qora cho'pon, deb ataganlar (muallif). Bu iborada "qora cho'pon" va "qipchoq nizolari" muayyan voqealarning ramziy obrazi sifatida keltirilgan. Bu timsol orqali muayyan tarixiy yoki ijtimoiy ziddiyatlar bevosita aytilmasdan, ramziy tarzda tushuntirilmoqda

foyda va qipchoq og'aynilarg'a nima manfaat hosil bo'lmoq-da?
[10]

Ushbu parchadagi allegoriya "qora chopon va qipchoq nizo'lari" iborasi orqali namoyon bo'lib, u jamiyatdagi ixtilof va buzg'unchilik keltiruvchi kuchlarning timsoli sifatida xizmat qiladi. Muallif mazkur obrazlar yordamida xalqni bo'luvchi va nizo chiqaruvchi toifalarni tanqidiy tarzda tasvirlaydi. Ma'no ko'chishi o'xshatish va ramzli ifoda asosida amalga oshgani uchun bu allegoriya metafora tropi orqali berilgan. Demak, asarda muallif

voqelikni bevosita emas, balki ramz va timsol orqali aks ettirib, jamiyatdagi ziddiyatlarni badiiy shaklda ifoda etgan. Shu tariqa, allegoriya va metafora bir-biriga yaqin, ammo semantik jihatdan farqli badiiy vositalar ekanligi aniqlandi. Agar metafora so'zning ma'nosini vaqtinchalik ko'chirish orqali yangilik yaratasa, allegoriya butun obraz tizimi orqali muayyan g'oyani shartli ravishda ifoda etadi.

<p>- «Qora ko'zlari, kamon qoshlari...» - A-a-a, - dedi Hasanali va qaytadan qulog'ini tirqishg'a olib bordi. Endi uning butun borlig'i quloq bo'lib aylangan, o'zini unutib barcha diqqati hujra ichiga oqg'an edi. O'rtadan ko'b fursat o'tmadi, boyag'i uyqusirash yana takrorlandi: - «Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho'chib qochishlar... Uff». Hasanali uchun birinchida onglashilmay qolg'an ma'nolar bu keyingi gap bilan yeshildi. Hasanali endigi o'tlurishni ortiqcha topib o'midan turdi, hujrasiga kirar ekan, boshini chayqab o'zicha so'zlandi: - Bek oshiq! "Oy kabi yuzlar", "kamon qoshlar"[11]</p>	<p>Chiroyli go'zal yuz. O'TIL O-B.98- Qayrilma egilgan qosh. O'TIL Q-B.309 Bu kabi badiiy ifodalar o'zbek she'riyatida va folklorida juda ko'p uchraydi, chunki ular obrazli va ta'sirchan tasvir yaratishga yordam beradi.</p>
---	---

Mazkur parchada qo'llangan "oy kabi yuzlar" va "kamon qoshlar" birliklari go'zallik hamda muhabbat konseptlarini ramziy-allegorik shaklda ifoda etadi. Muallif sevikli ayol qiyofasini bevosita tavsiflash o'rniga, uni tabiat obrazlari -oy va kamon bilan qiyoslash orqali obrazli semantik qatlam yaratadi.

Bu holatda ma'no ko'chishi metaforik transfer asosida yuzaga kelib, tashqi qiyofaga xos belgilar estetik ideal darajasiga ko'tariladi. Oy - nur, poklik va latofat konseptini, kamon esa

nafislik va shakliy mukammallikni anglatuvchi madaniy kod sifatida namoyon bo'ladi.

Shu tariqa, metafora tropi vositasida shakllangan allegorik ifoda go'zallikning estetik ta'sirini kuchaytiradi hamda qahramonning ichki ruhiy kechinmalarini chuqurroq verballashtirishga xizmat qiladi.

Natijada mazkur tasvir vositasi badiiy diskursda obrazlilik va ekspressivlik darajasini oshirib, matnning lingvomadaniy mazmunini boyitadi.

va ramzli ma'no asosidagi metafora tropi orqali" ifodalangan bo'lib, asardagi dramatik vaziyat va emotsional ta'sirni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, uslub tilning funksional differentsiatsiyasi bilan bog'liq hodisa bo'lib, badiiy uslub estetik vazifasi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Badiiy matnda troplar va stilistik figuralar obrazlilik va ekspressivlikni ta'minlovchi asosiy mexanizmlar hisoblanadi.

Allegoriya va metafora o'zaro yaqin, ammo semantik jihatdan farqli tushunchalardir. Metafora ayrim belgilar asosida ma'no ko'chishini amalga oshirsa, allegoriya butun obraz tizimi orqali muayyan g'oyani ramziy tarzda ifoda etadi. Ochiq (keng talqinli) metafora allegoriya shakllanishi uchun zamin yaratadi, yopiq metafora esa ma'noning barqarorlashuvini ta'minlaydi.

Badiiy parchalar tahlili shuni ko'rsatadiki, "oy kabi yuzlar", "kamon qoshlar" kabi obrazlar go'zallik va muhabbat konseptlarini estetik ideal darajasiga ko'tarsa, "qonliq bulutlar" kabi birliklar ijtimoiy-siyosiy beqarorlikni ramziy tarzda ifodalaydi. Bu holatda allegoriya metafora tropi orqali voqelanib, asarning dramatik ta'sirini kuchaytiradi.

<p>Azizbek fотиha berdi. Xalq urush hozirlig'iga kirishdi. Ana, o'g'lim, bizning xalqning holiga yig'lashni ham bilmaysan, kulishni ham! Har holda Toshkand ustiga yana qonliq bulutlar chiqdi, ishning oxiri nima bilan tinchlan - bu bir xudog'agina ma'lumdir. Boshqa so'zlardan ham ortiqroq esingga shuni solib o'tayki, siyosat to'g'ila-rida o'ylanibroq so'zla! [12]</p>	<p>-Qon yuqli, qon tekkan O'TIL Q-B.330 Toshkentda qandaydir fojeali, mojaroli yoki qon to'kilishga sabab bo'ladigan voqealar yuz berganini anglatadi.</p>
--	--

Ushbu parchadagi "Toshkand ustiga yana qonliq bulutlar chiqdi" iborasida allegoriya yaqqol namoyon bo'lib, u jamiyatda yuz berayotgan siyosiy beqarorlik va urush tahdidini ramziy tarzda ifodalaydi. Bu yerda "qonliq bulutlar" so'zi to'g'ridan-to'g'ri tabiiy hodisani emas, balki xalq boshiga tushayotgan fojea, qon to'kilish va xavf-xatarni anglatadi. Muallif bulut obrazi orqali millatni qoplab kelayotgan siyosiy to'fon va qayg'uli voqealarni metaforik shaklda tasvirlaydi. Shu tariqa, bu iboradagi allegoriya "o'xshatish

ADABIYOTLAR

1. Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1983. Б-280. Б 11
2. Э. Қиличев. "Ўзбек тилининг практик стилистикаси" Тошкент, "Ўқитувчи" нашриёти, 1985. Б-104. Б 9-14
3. Солганик Г.Я. Стилистика текста. - М.: Флинта: Наука, 2001. - 252-198
4. Абдулхамид Чўлпон "Кеча ва кундуз" Тошкент; Янги нашр, 2019. 332-4 Б 5. Солганик Г.Я. Стилистика текста. - М.: Флинта: Наука, 2001. - 252- с.199
5. Солганик Г.Я. Стилистика текста. - М.: Флинта: Наука, 2001. - 252- с.200
6. Потебня А.А. Теоретическая поэтика. - М.: Высшая школа, 1990. - 334 с. С- 238
7. Москвин В.П К определению понятия "аллегория". Русская речь, 2006, № 4, страницы 45-56.
8. Торгонская В.Л "Метафора в творчестве Алексея Никонова" ВКР.Красноярск 2016. С-65
9. А.Қодирiy "O'tgan kunlar" "Yangi nashr" 2019-368. b.15
10. А.Қодирiy "O'tgan kunlar" "Yangi nashr" 2019-368. b.20
11. А.Қодирiy "O'tgan kunlar" "Yangi nashr" 2019-368. b.33